



**SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARIDA NIKOH
VA OILA MASALALARINING YORITILISHI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.063>

UO‘K:37065

Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi

Urganch davlat pedagogika insituti tayanch doktoranti

Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi

pedagogika fani o‘qituvchisi

yusupovoybek220620@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-9374-468X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila”, “Nikoh, taloq va idda”, “Keksalarni e’zozlash”, “Ijtimoiy odoblar” va “Sog‘lom bola” asarlari asosida o‘zbek xalqining oilaviy tarbiya an‘analari va ularning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

Maqolaning kirish qismida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi muqaddas o‘rni, nikohning inson hayotidagi ahamiyati, er-xotin munosabatlari, ota-ona va farzandlar mas‘uliyati hamda keksalarni e’zozlash kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, maqolaning metodlar qismida “oila” va “nikoh” masalalariga oid adabiyotlari tahlil qilingan. Muhokama qismida esa muallif asarlarida aks ettirilgan oilaviy tarbiya tamoyillari va yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzand tarbiyasida Shayxning qarashlarining dolzarbligini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, ushbu asarlarni zamonaviy pedagogikada qo‘llanilishi imkoniyatlarini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Nikoh, oila, farzand tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar

Аннотация. В данной статье на основе трудов шейха Мухаммада Содика Мухаммада Юсуфа “Счастливая семья”, “Брак, развод и иdda”, “Почитание пожилых”, “Социальные нормы поведения” и “Здоровый ребёнок” анализируются семейные воспитательные традиции узбекского народа и их педагогические аспекты. В введении статьи рассматриваются такие вопросы, как священное значение семьи как социального института, важность брака в жизни человека, отношения между супругами, ответственность родителей и детей, а также уважение к пожилым. В методологической части проводится анализ литературы, посвящённой вопросам семьи

и брака. В разделе обсуждения анализируются принципы семейного воспитания, отражённые в трудах автора, а также педагогические подходы, направленные на духовно-нравственное становление молодежи.

Цель статьи - выявить актуальность взглядов шейха на укрепление семейных отношений и воспитание детей а также изучить возможности применения

Ключевые слова: брак, семья, воспитание детей, духовно-нравственное воспитание, семейные ценности, семейные отношения.

Annotation.This article analyzes the family upbringing traditions of the Uzbek people and their pedagogical aspects based on the works of Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Y Musuf, including “A Happy Family”, “Marriage, Divorce, and Iddah”, “Honoring the Elderly”, “Social Etiquette”, and “A Healthy Child”. The introduction discusses the sacred role of the family as a social institution, the importance of marriage in a person’s life, husband-wife relations, the responsibilities of parents and children, and the respect for the elderly. The methodology section involves an analysis of literature related to the topics of “family” and “marriage.”

The discussion part explores the principles of family upbringing reflected in the author's works and pedagogical approaches aimed at the moral and spiritual development of youth. The article aims to highlight the relevance of the Shaykh’s views in strengthening family relations and child upbringing, as well as to explore the applicability of his works in modern pedagogy.

Keywords: marriage, family, child upbringing, moral and spiritual education, family values, family relations.

KIRISH.Oila - jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida shaxsning shakllanishida asosiy o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalqining tarbiyaviy qarashlarida “oila”, va “oilaviy munosabatlar”, “oilada farzand tarbiyasi”. doimo muhim hisoblangan shu nuqtai nazardan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning asarlari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda, farzand tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Baxtiyor oila”, “Nikoh, taloq va idda”, “Keksalarni e‘zozlash “Ijtimoiy odoblar” “Sog‘lom bola” kabi asarlarida nikoh va unga oid masalalar nikohning inson hayotidagi ahamiyati shuningdek oilaning muqaddas dargoh sifatida qaralishi oilada er-xotin munosabatlari, ota-ona va farzand mas’uliyatlari keksa insonlarni e‘zozlash va qadrlash shu bilan bir qatorda, oilaviy tarbiya tamoyillari keng yoritilgan. Ushbu maqolada Shayx asarlarida ilgari surilgan “oila”, “oilada farzand tarbiyasi” konsepsiyasi va uning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

MAZKUR MAQOLADA QO‘LLANILGAN ASOSIY METODLAR QUYYIDAGICHA:

1.Adabiyot tahlili: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning oila va tarbiya haqidagi asarlari, atroflicha o‘rganildi.

2.Qiyosiy tahlil: Islomiy qarashlar bilan zamonaviy pedagogik yondashuvlar solishtirib o‘rganildi.

USHBU METODLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TADQIQOT NATIJALARIDA QUYIDAGILARGA ERISHILDI.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘zining “Baxtiyor oila” asarida nikohga quyidagicha ta’rif beradi va uning qay darajada inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Nikoh insonlar o‘rtasidagi eng muqaddas ibodat darajasiga ko‘tarilgan aloqadir. Chunki nikoh Alloh taoloning amri Payg‘abarimiz (s.a.v.) sunnati, mo‘min musulmonlarning guvohligi asosida quriladi. Insoniyatning Odam alayxisalloomdan to hozirgacha yetib kelgan ibodati nikoh va iymondir. Chunki nikoh odamzod avlodining davomiyligini ta‘min etuvchi zaruratdir deb ta’kidlaydi.

Shuningdek “Baxtiyor oila” asarida oilada shaxslararo munosabatlar haqida batafsil yoritilgan.

Ya’ni urning ayoli oldidagi burch va vazifalari ayolning eri oldidagi burch va vazifalari farzandlarning ota-onasi oldidagi majburiyatlari ota-onaning farzandi oldidagi ma’suliyatlari haqida tushuntirib berilgan .bo‘lsa ([4.123-b]).

“Sog‘lom bola” asarida farzand tarbiyasi haqida juda qimmatli fikrlarni bayon qilgan ya’ni “sog‘lom bola” deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki:

Iymon-e’tiqodi sog‘lom, axloqi pok, aqliy barkamol, jismonan baquvvat jamiyatga foydali bo‘lgan bola nazarda tutilishini aytadi.Shu bilan bir qatorda bola tarbiyasi eng avvalo uydan, ota-onadan boshlanishi kerakligi chunki bola ko‘rganini qiladi - ya’ni, ota-onaning namunasi juda muhimligini tarbiyada ikki asosiy narsa: muhabbat va intizom zarurligini ta’kidlab o‘tadi.([7.432-b]).

Shuningdek ushbu asarda Shayx hazrtalari bugungi zamonaviy dunyoda muammolar - internet, ijtimoiy tarmoqlar yot madaniyat -bolaning axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tan olib ota-onalarni ogohlikka chorlaydi ya’ni farzandini vaqtida ogohlantirish, nazorat qilish mas’uliyatli ravishda internetdan foydalanishga o‘rgatishlari lozimligini ta’kidlaydi([7.321-b])

“Nikoh taloq va idda” asarida esa Nikoh inson hayotidagi eng muqaddas aloqa sifatida ta’riflanadi. Bu Allohning amri va Payg‘ambarimiz (s.a.v.) sunnatiga asoslangan ibodatdir. Ushbu asarda nikohning maqsadlari sifatida quyidagilar aytilgan.

- nasl-nasabni muhofaza qilish,
- zino kabi gunohlardan saqlanish
- jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta’minlash

Shuningdek ushbu asarida er va xotinning bir-biriga nisbatan huquqlari va majburiyatlari keng yoritiladi.

Erning xotinini moddiy ta‘minlash, mehr bilan muomala qilish va oilani himoya qilish vazifasi ta‘kidlanadi. Xotin esa erga itoat qilish, oila o‘chog‘ini asrash va farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalasa harakat qilish kabi mas‘uliyatlarga ega ekanligi aytiladi([6.45-b]).

“Keksalarni e‘zozlash” asari esa keksalarga hurmat ko‘rsatish muhim o‘rni, ularning oila va jamiytdagi mavqei, ularga g‘amxo‘rlik qilishning shar‘iy va axloqiy jihatlari haqida so‘z yuritadi. Muallif keksalar nafaqat tajribali va donishmand shaxslar sifatida hurmatga sazovor ekanliklarini, balki islomda ularga alohida e‘tibor berish farz ekanligini ta‘kidlaydi([5 78-b]).

Asar shuningdek, zamonaviy jamiyatda keksalarga nisbatan yuzaga keladigan muammolar, masalan, ularga bepisandlik yoki e‘tiborsizlik kabi holatlarni tanqid qiladi va bu muammolarga islomiy yechimlar taklif etadi.

Ota-ona keksalikka yetganda ularga alohida e‘tibor berish zarurligi ta‘kidlanadi.

Ota-onaga yaxshilik qilish, ularning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish farz ekanligi aytiladi.

Ota-onaning duolarining ijobati va ularning roziligini olishning savobi haqida misollar keltiriladi. Masalan, ota-onaning “Alloh sendan rozi bo‘lsin” degan duosi farzand uchun jannat eshiklarini ochishi mumkinligi ta‘kidlanadi.

Shu bilan birga, ota-onaga qarshi chiqish, ularga qattiq so‘zlash yoki e‘tiborsizlik qilish kabi xatti-harakatlar katta gunohlar qatoriga kirishi haqida ogohlantiriladi.

Shuningdek yoshlarga keksalarga hurmat ko‘rsatish orqali o‘zlarining axloqiy darajasini oshirishlarini o‘rgatadi. Bu nafaqat diniy vazifa, balki insoniy va ijtimoiy mas‘uliyat ekanligi ta‘kidlanadi.

Keksalarni e‘zozlash orqali yoshlar o‘z farzandlariga ham namuna bo‘lishlari va kelajakda o‘zlari ham hurmatga sazovor bo‘lishlari mumkinligi aytiladi.

Jamiyatda keksalarga hurmat ko‘rsatish madaniyatini targ‘ib qilish uchun masjidlar, mahalla va ta‘lim muassasalarida bu masalani yoritish zarurligi ta‘kidlanadi([5.88-b]).

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Ijtimoiy odoblar” asari islomiy axloq va odob-axloq qoidalarini yorituvchi muhim manba bo‘lib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Bu asar islomning ijtimoiy munosabatlar, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va axloqiy qadriyatlar haqidagi ta‘limotlarini o‘zbek xalqining an‘analari bilan uyg‘unlashtirgan holda tushuntiradi.

Asarda ota-ona va qarindosh-urug‘larga hurmat ko‘rsatish, ularga yaxshilik qilish va oilaviy rishtalarni mustahkamlashning ahamiyati ta‘kidlanadi. Bu yoshlarni oilaviy hayotda faqat er-xotin munosabatlari emas, balki katta oila bilan ham aloqada bo‘lishga tayyorlaydi([2.39-b]).

Ota-onaning roziligini olish va ularning duolarini olish oilaviy hayotda baraka va muvaffaqiyat keltirishi haqida misollar keltiriladi. Bu yoshlarni oila qurishda ota-ona maslahatiga e‘tibor berishga undaydi.

Yoshlarga islomiy odob-axloq qoidalariga amal qilish orqali oilada mehr-oqibat va tinchlikni saqlash o‘rgatiladi. Masalan, yaxshi so‘z, muloyim muomala va o‘zaro hurmat oilaviy hayotning asosi ekanligi ta’kidlanadi.

Yoshlarning o‘zini tutishi, g‘iybat, yolg‘on va boshqa axloqsiz xatti-harakatlardan saqlanishi oilaviy hayotda ishonch va sadoqatni mustahkamlashga yordam beradi.

Yoshlarni nafaqat o‘z oilasiga, balki jamiyatga ham foydali shaxs bo‘lishga undaydi, bu esa ularning oilaviy hayotda mas’uliyatli va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufing qarashlari nafaqat diniy, balki pedagogik qimmatga ega. U ta’lim nazariyalarida ilgari surilgan kognitivizm va konstruktivizm tamoyillari bilan uyg‘unlikda talqin etilishi mumkin.

Shayx hazratlarining fikricha, bola bilim va tarbiyani faqat tashqi muhitdan emas, balki o‘zining ichki dunyoqarashi va tajribasi orqali ham o‘zlashtiradi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning oilaviy qadriyatlarni unutib qo‘yishi, individualizmning kuchayishi kabi muammolar fonida Shayxning qarashlari ulkan pedagogik ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv jarayoni yoshlar orasida oilaviy qadriyatlarning pasayishi va individualizmning kuchayishiga olib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv oila tuzumini zaiflashtirib, individualizmni kuchaytiradi, natijada oila a‘zolari o‘z rollarini yo‘qotadi va ijtimoiy rishtalar buziladi.

Yoshlarda identitet o‘zgarishi sodir bo‘lib, mahalliy madaniyatlar g‘arbiy qadriyatlar bilan almashtiriladi, bu esa ruhiy salomatlik muammolariga sabab bo‘ladi. Masalan, globallashuv oila an‘analari va qadriyatlariga ta’sir qilib, ularni dinamik o‘zgarish jarayoniga olib keladi, ammo bu jarayon ko‘pincha salbiy natijalarga ega.

Bunday fonida Shayxning qarashlari ulkan pedagogik ahamiyatga ega. U oila tarbiyasini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni taklif qiladi, bu yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy barkamol shaxslar etib tarbiyalaydi.

Xususan, ta’lim jarayonida oila tarbiyasi elementlarini integratsiya qilish yoshlarni ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy barkamol shaxs etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

XULOSA

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning oila tarbiyasi konsepsiyasi islomiy ta’limotlar asosida shakllangan bo‘lib, oilani jamiyatning asosiy instituti sifatida ko‘radi. Uning asarlarida oila nafaqat nasl-nasabni muhofaza qilish va axloqiy barqarorlikni ta’minlash vositasi, balki shaxsni ma’naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantiruvchi muhit sifatida tasvirlanadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarida oila tarbiyasi konsepsiyasi Qur’on va hadis asosida mustahkamlangan bo‘lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos keladi. Bu qarashlar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ota-onalar pedagogik

madaniyatini oshirish va ta’lim tizimida oilaviy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy dasturlarni ishlab chiqishda samarali manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Musurmonova O va b. “Ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish - jamiyat taraqqiyotining asosi” .- T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 188 b
2. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Ижтимоий одоблар” Т.: “Ҳилол-нашир”2012 304b
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Рухий тарбия” 1-жуз Т.: “Ҳилол-нашир” 2018 480 b
4. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. “Бахтиёр оила” Hilol-Nashr, 2015 ва 2022 йилларда, ҳажми 528 b
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Кексаларни эъзозлаш” Hilol-Nashr, 2015 ва 2022 йилларда, ҳажми 528 b
6. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Никоҳ, талоқ ва идда” Hilol-Nashr, 2015 ва 2022 йилларда, ҳажми 528 b
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “ Соглом бола”“Ҳилол-нашир”2012 104b